

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

ISTIQLOL DAVRI O‘ZBEK HIKOYALARIDA URUSH MAVZUSIGA YONDASHUV

Ergashov Bekzod Jahongir o‘g‘li

Sirdaryo viloyati Guliston tumani

21-maktabning ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

Isajon Sultonning urush mavzusidagi hikoyalaridan biri “Askar” deb nomlanadi. Ushbu asar o‘zi frontda bo‘lmagan, ya’ni urush fojeariga bevosita guvoh bo‘lmagan yozuvchi tomonidan yozilgan bo‘lib, undagi voqealar ham urush manzarasi tavsifi bilan boshlanadi.

“... Harbiy uchoqlar tinmay uchib-qo‘nar edilar. Bepoyon uchish maydoni, qurollangan askarlar-u uchoqlarga to‘la edi. Buyruqlar betinim eshilib turar, qo‘mondonlik turdi vazifalarga mo‘ljallangan bo‘linmalarni tartibi bilan jangovor vazifaga yo‘llamoqda edi”¹. Hikoyaning bu tarzda boshlanishidan uning urush mavzusida ekanligini ilg‘ash qiyin emas. Qizig‘i shundaki, ushbu hikoya insoniyat tarixida bo‘lib o‘tgan biror bir urushni aks ettirmagan, unda noaniq va noma’lum urush o‘chog‘i va undagi jang tafsilotlari hikoyachi qahramon tilidan hikoya qilinadi. Hikoyachi qahramon esa askar bo‘lib, u o‘sha jang tafsilotlarini o‘z rakursi doirasida, o‘z nuqtai nazaridan hikoya qiladi.

Asar hikoyachi qahramon bo‘lgan askar yigitning vatanparvarlik g‘oyalari singdirilgan dunyoqarashi va bu dunyoqarashga va g‘oyaga sobitlikka yo‘g‘rilgan inson, o‘z Vatani uchun jonini fido qilishga tayyor va bundan zarracha ham afsuslanmaydigan kishi sifatida namoyon bo‘ladigan qahramon nutqi asarning ko‘tarinki pafos bilan yozilishiga asos vazifasini o‘tagan.

Hikoyachi qahramon bo‘lgan askar yigit hikoya boshlanishida mamlakatda nimadir ro‘y berganligi, shu sababli xavf burg‘ulari chalinib, jangovor safarbarlik boshlanganligidan darak beruvchi holat yuzaga kelganligini, o‘zlarining bo‘linmalari harakatga kelganligini aytish bilan boshlanadi. Lekin hikoyachi qahramon tilidan aytib borilayotgan mavhum makon va mavhum zamondagi mavhum syujet ifodalanishi bilan birga ushbu askarning ruhiy kechinmalari tavsifi syujetga nisbatan atroflicha aks ettirilganligini ko‘rish mumkin. Xususan:

“Bu vatan shu qadar bepoyon, shu qadar ulkanki, hududlari qayerdan boshlanib, qayerda tugashini bilish qiyin. Turli-tuman yo‘llar qaylarga olib boradi. U yoqlarda yana sonsiz-sanoqsiz vodiylar, tog‘u-adirlar bor. O‘sha oralarda ham kimlardir, bizlar kabi fuqarolar mehnat qiladilar. Barchaning mehnati shu vatanning osoyishtaligi va musaffoligiga yo‘naltirilgan. Ilm-u fanning, texnologiyaning barcha yutuqlari shu maqsad uchun xizmat qiladi. Barcha tizimlar o‘z-o‘zidan ishga tushadigan qilib tartiblangan. Dushman hujum qilmasdan avval bu tizimlar farah uchun ishlayotgan edi. Minglab transport tizimi kerakli joylarga kerakli ma’danlarni tashir, sanoqsiz fabrikalarda turli-tuman oziqlar qayta ishlanar, suvlar sharqirab oqar, atrof tinch edi. Endi hamma yoq o‘zgarib ketdi.

Olg‘a! Muqaddas Vatan uchun olg‘a!”²

Ko‘rinadiki, qahramonning fikrlari hayotning umumiy oqimini, ijtimoiy hayot tarzining umumiy manzarasini aks ettiradi. Bu tasavvur orqali yuz berajak voqelikning insoniyat uchun naqadar ayanchli oqibatlar olib kelishi his eta olishini o‘rgatadi.

Hikoyachi qahramon nutqida asosiy voqelik bo‘lgan urush lavhalari hikoyalari ham atroflicha bayon qilib boriladi. Xususan, yordamchi harbiy qismlarning katta tezlikda ishlayotganlari, ular urushda halok bo‘lgan yoki qo‘l-oyoqlari uzilgan askarlarni zudlik bilan jang maydonidan olib chiqib ketayotganlari, ularning o‘rniga zudlik bilan boshqa jangchilar kirib kelib mardonavor jangga tashlanmoqdaligi, yovni mahv etish hozircha imkonsiz bo‘lsa ham, Markaz betinim ishlayotganligi, maxsus xizmat askarlari dushman askarini asir olib, undan ma’lumotlar ola bilishlariga shubha qilmasligini aytish orqali jang tafsilotlariga to‘xtalgan bo‘lsa, hikoya davomida ob-havo haqidagi va uning harbiy holatga ta’siri masalasiga ham to‘xtalishidan bu ma’lumotlarning ham muhim ekanligiga ishorani ilg‘ash mumkin.

Bunday jang va jarayon tafsilotlaridn so‘ng hikoyachi qahramon yana kechinma tavsifiga o‘tadi va vatan haqidagi fikrlarini ko‘tarinki pafos orqali bayon qilib o‘tadi:

“Bu Vatan shunchalar muqaddaski, hammamiz halok bo‘lib ketsak ham u qolaveradi. Biz hech kimmiz. Vatan har narsadir. U shunchalar ulug‘ va muhimki, oldida hascha ham emasmiz. Biz kabi minglab askarlar hozir jangovor vazifaga yuborilyapti, yana millionlab ishchilar turli joylarda turli vazifalarni bajarmoqdalar. U tufayli mana shu jangga kirayotganimizdan baxtiyormiz. Bizda ota-ona, farzand yo‘q, vazifamiz Vatanni himoyalash. Chunki uning g‘oyatda muhim bir ahamiyatni anglab yetishga biz ojizmiz”. Ko‘rinadiki, hikoyachi qahramon Vatan tushunchasi barcha tushunchalardan ustun ekanligini, jonfidolik u uchun bo‘lishi kerakligini aytadi, lekin navbatdagi voqealar tafsilotida mazmun oldingisidan keskinroq bayon qilinadi, ya’ni jangga kirgan askarlarning aksari qaytmayotganligi, qaytganlarining qo‘rqinchli alfozda, oyoq-qo‘llari uzilgan yoki erib ketgan holatda olib kelinayotganligini, keyinroq esa ommaviy qirg‘in quroli ishlatilganligini, ya’ni ko‘rib turgan manzarasi to‘zonga aylanganligini, istehkom va qurilmalar vayron bo‘lganligini, lekin ko‘z ilg‘amas tomondan kelayotgan askarlar hamma joyni qayta tiklashni boshlab yuborishganini aytish orqali bu holatdagi uzluksizlik va paradoksga ishora qiladi.

Kechinma tavsifi bayonida “Biz bu vatandan tashqarida mavjud bo‘la olmaymiz. Undan ayri tusholmaymiz ham!”, degan shiorga o‘xshash shakldagi ritorikani ham berib borish orqali ushbu g‘oyaga alohida ahamiyat qaratadi. Navbatdagi kechinma tavsifida askarlar jonfido qilayotgan maslak haqida o‘zgacha fikr yuritiladi:

“Har birimiz bir mahsul berganimiz holda, vatan yanada ulug‘roq bir mahsul bera olgani uchun ham shundaydir. Bu yerda xizmatdan og‘ish yo‘q, hamma o‘z vazifasini aniq biladi, aniq bajaradi. Biz bu vazifani osmonga va tog‘larga ro‘para qildik, ular bu og‘ir yukni ko‘tara olmasliklarini bildirdilar, insongina yelkasini tutdi degan gap u haqida aytilgandir. G‘oyat ulkan u yumushning nima ekanini to‘la angalayolmaymiz, bizning vazifamiz unga bo‘ysunish va mana u vatanning obodligi uchun fido bo‘lishdan iborat”³. Ya’ni hikoyachi qahramonning ushbu fikrlaridan insonning zimmasidagi mas’uliyatli vazifa bo‘lgan vatan uchun fidolik burchini tog‘u toshlar yoki osmon ham bajarishni istamaganligini, lekin insonlar bu vazifani sidqidildan bajarishga tayyor ekanligini aytish orqali bu burchga alohida diqqat qartadi. Lekin uning fikridagi o‘zi ham anglay olmaydigan darajadagi ulkan vazifani so‘zsiz bajarishi uning askar ekanligidan anglashiladi.

Keyingi syujet tafsilotlarida yerda katta yoriq paydo qiladigan yerning qimirlashi, yonishi va bundan o‘z askarlari oldingidan ham katta talofat ko‘rayotganligini aytadi.

Lekin yana bir o‘rindagi tafsilotlarda har ikki raqib tomonni ham g‘orat qiladigan allaqanday kuch paydo bo‘lganligi tafsilotlarini bayon qiladi:

“... Osmon tobora pasayib, yer yuzini bosib kelmoqda. Nima ro‘y beryapti, nima? Yo‘llar yorilib-yorilib ketmoqda. Qurilmalar, inshootlar, fabrikalar vayron bo‘lmoqda. Juda qattiq silkinishlar

3 Isajon Sulton. Ozod. –T., Sharq, 2012. 305-bet.

ro‘y berayotir. Men maydoncha chetidagi bir yoriqqa tirmashib jon saqlayman. Balki, qiyomat qoyimdir bu!? Daryolar o‘zanlaridan otilib chiqib ketmoqda, tog‘lar o‘rinlaridan siljimoqda. Yo‘q, hech qaysi dushmanning g‘orat qiluvchi kuchi bu qadar emas edi. Yana nimadir, juda mudhish nimadir ro‘y berayotir. Ana, dushman ham sarosimada, nima qilarini bilmay alanglab, turgan joyida halok bo‘lib ketyapti! Ko‘zga ko‘rinmas benihoya bir qudrat hamma narsani buzib, g‘orat qilib yubormoqda. Qaylardadir yam-yashil maydonlarda chopqillab o‘ynab yurgan kichkina qizaloqlar-u bolakaylar ham halok bo‘lmoqdalar...”⁴ Keyingi tafsilotlarda birdaniga boshlangan yong‘in barcha narsani olib ketayotgani aytiladi.

Lekin askarning qalb nolalari, ya‘ni Vatanning g‘orat bo‘lishiga hech qachon yo‘l qo‘ymasligi, Vatan bor ekan, u borligi, u kabi son-sanoqsiz ekanligi, lekin Vatan yagonaligi u bo‘lmasa, askarga ham hojat bo‘lmasligi kabilarni aytish orqali osmonga murojaat qiladi. Va shundan so‘ng silkinishlar to‘xtaydi. Ya‘ni vatan uning borligini, u kabilar uchun kerak ekanligini his etadi, uning uchun sidqidildan o‘z jonidan voz kechadigan, u uchun fido bo‘ladiganlar borligini his etgan chog‘da oxirzamon bo‘layotgan bo‘lsa ham to‘xtashi mumkinligi, samimiy va fidoyi insonlar, pokiza qalb sohiblari bor ekani, zamonning ham, makonning ham yo‘q bo‘lib ketishiga yo‘l qo‘ymasligi haqidagi muallifning g‘oyalari asarga singdirilganligiga guvoh bo‘lish mumkin.

Syujet yo‘nalishi davomida endi askarga shunday bir imkoniyat berilganligiga guvoh bo‘lamiz. Ya‘ni askar bir istehkom ortiga yashirilib olgan dushman askariga ko‘zi tushadi. Unga o‘zi qilgan vayronalikalarga bir nazar solib, bular nima sababdan kerak ekanligi xususida fikr yuritishga chorlagan askarga dushman askari o‘zi va sheriklarining ochlikda ozuqa axtarib kelib qolganligini, yoriq tashqarisida ular o‘limga mahkum ekanliklari xususida javob qaytaradi.

Unga muqaddas vatan tushunchasi yot ekanligi, bu yerlarga urchib-ko‘payish uchun qulay va osuda makon izlab kelganligini, askarning jon kuydirib aytayotgan vatan haqidagi so‘zlarini nafaqat tushunmasligi, balki his qilmasligini aytish orqali o‘zining bir maxluq kabi yaratiq ekanligiga, ya‘ni nafsining quli bo‘lib yashab o‘tayotganlarning tipik namunasi ekanligiga ishora qiladi. Qorin bandalari bo‘lgan bunday maxluqsimonlar nafsini qondirish yo‘lida turfa pastkashliklardan, vayronagarchiliklar va qotilliklardan ham aslo qaytmasligiga muallif ishora qiladi.

Dushmanning bu tarzdagi gaplariga askarning javobida muallif ilgari surayotgan g‘oya va konsepsiyasining mag‘zini kuzatish mumkin:

“- Chunki sen vatansizsan! Shu bois ham muqaddaslik degan narsalardan bexabarsan. Mening Vatanim benihoya ulug‘ bir maqsad tufayli yaratilgan. U maqsad shu qadar ulug‘ki, uning oldida na sening ahamiyating bor, na mening. Biroq aynan mana shu muhoriba bois men endi tasavvuringga ham sig‘mas yuksaklarga ko‘tarilaman.”

“... Ha, bir kun kelib olamda hech bir narsa qolmaydi quyoshlar, yulduzlar, oylar hammasi tamomila yo‘q bo‘lib ketadi. Jumladan, bizning Vatanimiz ham Tangri taoloning irodasi tufayli butun olamga qo‘shilib betahqiq yo‘qlikka yuz tutadi. Ana o‘shanda, bizning butun bu xizmatlarimiz, fidokorliklarimiz yana qiymat kasb etadi.. U erishtiradigan qadru qiymatga sen hech qachon erisha olmaysan! Kirib kelishingning o‘ziyoq avvalboshdan yanglish edi, shu bois ham, albatta, halokatga mahkumsan”⁵. Fidoyi askarning ushbu so‘zlaridan iymon tuyg‘usi ifodasini ko‘rish mumkin. Ya‘ni u bir kun kelib yaratganning irodasiga ko‘ra oxirizamon bo‘lganda, har kim o‘z a‘moli uchun javob berar chog‘ida ularning fidokorligi o‘z mukofotini olishi, dushman kabi bemaslak va imonsizlar esa jazolanishlari muqarrarligi xususida so‘zlaydi.

4 Isajon Sulton. Ozod. –T., Sharq, 2012, 307-bet.

5 Isajon Sulton. Ozod. –T., Sharq, 2012. 309-bet.

Shu bilan har ikkalasi jangga kirib, askar dushmani magʻlub etadi, lekin oʻzi ham olgan ogʻir jarohati tufayli halok boʻlar chogʻida ular tomonning gʻalabaga erishganini koʻrib, xursandligidan “Ey Vatan, tuproqlaringga koʻm meni! Hatto halok boʻlgan onimda ham faqat sening quchogʻingda yotay, Vatan!”⁶ – deyishni xohlaydi.

Vatanning naqadar muqaddas va aziz ekanligini, unng misli koʻrilmagan hududlarida tuman-tuman askarlar uning uchun jon fido qilishga shay ekanliklarini, vatan tuprogʻi uzra ushbu fidokorlar shon-sharafga, adolatga bemisl sadoqatlarga burkash uchun tuproqlaring uzra qaytadan bosh koʻtarib chiqishlari, vatan esa oʻz navbatida oyoqlari ostiga poyonoz boʻlib, ularning xizmatlari boʻisgina qadr-u qiymat qozonganligini butun olamga maʼlum qilishini aytish orqali har ikkalasi biri-biri uchun yaratilganligin uqtiradi.

“Bizlar sensiz, sen esa bizlarsiz mavjud boʻla olmasligingni, yosh askarlar qoʻllarida bayroq bilan men tomon chopib kelishayotganini, gʻoyat aziz va xushboʻy tuprogʻing yaralarimizning ogʻriqlarini ozaytirib, yuzimga xush yoqayotganini, saldan keyin sen uchun jonini fido qilishga hamisha tayyor eng oddiy bir askaringni quchogʻingga olishingni mushtoqliq bilan kutmoqdaman... bir kuni... mana shu sevimli bagʻringdan maysa kabi yana qaytadan bosh koʻtarib chiqishim uchun... azizim mening...”⁷ Askarning ushbu soʻzlaridan uning Vatan uchun jon fido qilishiga u bilan chambarchas bogʻliq ekanligi, yaʼni unga fido boʻlishiga vatan ham uni ardoqlashi, uning fidokorligini unutmasligi, uni ham bagʻriga olib, qilgan yaxshiliklarini yod etib, kelajak avlodlarga yetkazishiga ishonchi komil ekanligi bilan bogʻlaydi. Vatan va askar tushunchalari bir-biri bilan chambarchas bogʻliq boʻlib, biri ikkinchisiz mavjud boʻlmasligi, bu gʻoya esa olmadagi eng pokiza tuygʻu – vatanparvarlikning mazmun-mohiyatini tashkil etishini muallif uqtirmoqchi boʻladi.

2011-yilda yozilgan ushbu hikoya garchi tarixda yuz bergan biror bir urush voqealariga asoslanmagan boʻlsa-da, urush mavzusida yozilgan eng yaxshi hikoyalardan biridir. Chunki unda insoniyat tarixida yuz berishi mumkin boʻlgan eng dahshatli urush tasavvur mahsuli sifatida aks ettirilgan. Har qanday urushda ham ezgu niyatli Vatan himoyachilari gʻolib boʻlishlari, bosqinchilar nafsi uchun boshlagan urushlarining qurbonlariga aylanishlari gʻoyasi ilgari surilgan.

Asarning ham hikoyachi qahramoni, ham bosh qahramoni boʻlgan askar yigit kabi vatanning fidoyi va mard farzandlari bor ekan, uning sarhadlari dushman va bosqinchilar oyoqlari ostida gʻorat boʻlmasligi, ezgulik hamisha gʻolib ekanligi muallif tomonidan taʼkidlanadi.

Asarda kompozitsion unsurlardan, asosan interyerlardan unumli foydalanilgan. Badiiy detal sifatida esa Vatan bayrogʻi, oq va qora peshonabogʻlarni aytib oʻtish mumkin. Sarlavha esa anʼanaviy boʻlib, u bosh qahramon nomidir.

Hikoyada ramziylik kuchli. Chunki unda aks etayotgan aksar tushunchalar ramziy maʼno kasb etgan. Xususan, asardagi ularning boshi uzra qulayotgan osmon – tobora bostirib kelayotgan dushmanning ustun kelayotgan vaziyati boʻlsa, yer ostidan paydo boʻlgan ulkan yoriq, bu insonlarning feʼl-atvorlaridagi darz ketish, fikri buzilishi holatlari ifodasi deyish mumkin.

Isajon Sultonning “Askar” kabi urush mavzusidagi hikoyalari tahlilidan quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

6 Oʻsha kitob. 309-bet.

7 Isajon Sulton. Ozod. –T., Sharq, 2012. 310-bet.

- Muallif garchi o'zi urush tafsilotlarini o'z ko'zi bilan ko'rmagan bo'lsa-da, ularni chin qalbdan his qila olgan va uning dahshatli oqibatlarini, fojealarini o'z asarlarida haqqoniy aks ettira olgan, kitobxonda tasavvur hosil qildira olgan ijodkorlardan biridir;

- "Askar" hikoyasi insoniyatning biror bir konkret urushlariga bag'ishlangan asar bo'lmasa-da, unda urushning insonlar boshiga keltiradigan dahshatlari to'laqonli aks ettirilgan. Unda fidokor askarlarning mardligi va matonati vatanning tayanchi ekanligi g'oyasi oldingi planda ko'rsatilgan.

-

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent. O'zbekiston, 2002. 470-bet.
2. Isajon Sulton. Ozod. – T., Sharq, 2012. 379-bet.
3. Isajon Sulton. Ozod. – T., Sharq, 2012. 377-bet.
4. Isajon Sulton. Boqiy darbadar. – T., O'zbekiston, 2011. - 243 b.
5. Tosheva Nilufar Shirinboyevna. Hozirgi o'zbek nasrida folklorga oid vositalarning poetik funksiyasi.(Isajon Sulton nasri misolida). Filol.f.b.f.d. (PhD) diss. avtoref. – T., 2020. – 53 b.
6. <https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/maqolalar/qisqa-hikoyalar-qiroli>
7. <https://ziyouz.uz/matbuot/hozirgi-davr-matbuoti/ulugbek-hamdami-istiqlol-davri-ozbek-adabiyoti-haqida-ikki-ogiz-soz/>
8. [https://n.ziyouz.com/books/kollej_va_otm_darsliklari/ona-tili_va_adabiyot/Istiqlol%20davri%20adabiyoti%20\(H.Karimov\).pdf](https://n.ziyouz.com/books/kollej_va_otm_darsliklari/ona-tili_va_adabiyot/Istiqlol%20davri%20adabiyoti%20(H.Karimov).pdf)
9. <https://journals.indexcopernicus.com/api/file/viewByFileId/1200536.pdf>
10. <https://jspi.uz/wp-content/uploads/2019/03/pdf>